



## TURIZMDA INTERMODAL TRANSPORT SAYOHATINI REJALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

---

*Axmatova Mohigul Ergash qizi*

*Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi o'qituvchisi*

*Buxoro davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakat transport infratuzilmasi holatini va turli transport turlari orqali yo'lovchi tashishni tashkil etishni o'rganib, xalqaro darajada turistlarga transport xizmati ko'rsatish sifatini oshirish va turizm sanoatining raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlarini amalga oshirishni maqsad qilgan, mualliflar Intermodal transport xizmatini taklif qilishgan.

**Kalit so'zlar:** transport xizmatlari, intermodal, multimodal, Unimodal tashish usuli.

Turizmning rivojlanishiga transport xizmatlarining ta'siri alohida ahamiyat kasb etib, bu ko'rsatgich vaqt o'tishi bilan o'sib bormoqda. Transport yirik tarmoqlararo kompleks sifatida turizm bilan o'xshash xususiyatlarga ega bo'lib, faqat turdosh tarmoqlarni samarali boshqarish bilangina muvaffaqiyatli rivojlana oladi. Transport turli hududlar va mintaqalardagi joylarni va manzillarni o'zaro bog'liqligiga erishishning asosiy unsuri bo'lib kelmoqda.

Transport xizmatlarining tashkil etilishi hamda sayohat manziliga yetib borish va ular ichida sayohat qilish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm tarixini tahlil qilar ekanmiz, transportda erishilgan yutuqlar va turizm rivojlanishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rish mumkin. Sayyohlarning sayohat davomida transport turlaridan foydalanishiga ko'ra uch usulga bo'linadi:

**Intermodal tashish usuli** - ikki va undan ortiq transport turidan foydalangan holda bir yo'nalish bo'ylab sayohatni tashkil etgan turoperator tomonidan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi, bunda tashish uchun javobgarlik operatorga yuklanadi. Sayohat uzoq masofaga rejalashtirilgan bo'lib, transport to'lovi oldindan amalga oshiriladi. Intermodal tashish shartnomasini asosiy sotuv kanali internet tarmog'i hisoblanadi.

**Multimodal tashish usuli** - bir nechta transportdan foydalangan holda erkin jadval asosida sayohatni tashkil etish. Bunda sayohat shahar va shahar atrofida tashkillashtiriladi, to'lov erkin usulga amalga oshiriladi. Mamlakatning chekka joylarida transport xizmatlarini joriy qilish va rivojlantirish innovatsion yechimlarni



talab qiladi, bu esa hududlarda transport tizimlarini boshqarishda yanada barqaror va moslashuvchan yondashuvni ta'minlaydi. Multimodal transport tizimlari aholi zich joylashgan hamda aholisi kam punktlari uchun xos bo'lgan turli xil jamoat va xususiy transport xizmatlarini birlashtiradi. Eng yaxshi yechim mobil ilovalar va internet platformalari yoki hatto barcha transport imkoniyatlari uchun bitta chipta tomonidan qo'llab quvvatlanishi kerak<sup>1</sup>.

**Unimodal tashish usuli** - faqat bitta transport turidan foydalangan holda sayohatni tashkil etish mumkin. Bu usul orqali sayohat qisqa masofada amalga oshirilib, odatda yengil avtomobillardan foydalaniladi.

Transportning turli tarmoqlaridagi innovatsion texnologik yechimlar transportning soni va uzoq masofadagi bir zumda bosib o'tish imkoniyatlarini oshirdi, shuningdek yo'lovchilar uchun qulayliklar yaratish orqali turizmni faollashtirishga va sayyohlarning yangi manzillarni zabt etishga katta hissa qo'shdi. AQSH va Kanadada turistik sanoatning rivojlanishiga aviatsiya va avtomobillarning o'rni beqiyosdir. G'arbiy Yevropa mamlakatlari bo'lmish Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariyada temir yo'l va avtobus orqali sayohat qilish bilan birga yengil avtomobillardan foydalanish ham urf bo'lgan. Skandinaviya mamlakatlarida esa suv transportlariga bo'lgan ehtiyoj juda yuqoriligi aytilgan fikrlarning isbotidir. Bu esa transport infratuzilmasini ta'minlash va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq davlat-xususiy sherikchilik va boshqaruv tadbirlari sonini oshib borishiga imkon yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mounce, R., Beecroft, M., & Nelson, J.D. (2020). On the role of frameworks and smart mobility in addressing the rural mobility problem, *Research in Transportation Economics* 83, 100956. <https://doi.org/10.1016/j.retrec.2020.100956> .
2. Омонова, Н. Р., & Хожиев, Д. (2023). Значение интерактивных методов в обучении в высшей образовании. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 16(3), 121-127.
3. Djurayeva, N. B., & Omonova, N. R. (2022). Sog'liqni saqlash turizmi mahsuloti dizaynini yaratish masalasi. *Science and Education*, 3(5), 1655-1659.

---

<sup>1</sup> Mounce, R., Beecroft, M., & Nelson, J.D. (2020). On the role of frameworks and smart mobility in addressing the rural mobility problem, *Research in Transportation Economics* 83, 100956. <https://doi.org/10.1016/j.retrec.2020.100956> .



4. Omonova, N. R. K., & Djurayeva, N. B. (2021). An overview of health tourism within the context of uzbekistan's tourism strategy. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 754-759.
5. Omonova, N. R., & Isokova, G. S. (2022). The significance of interactive methods in teaching in Higher Education. *Science and Education*, 3(12), 661-666.
6. Nilufar, O., & Hamroev, H. R. (2021, March). Medical tourism: problems and potentials of uzbekistan. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 3, No. 1, pp. 34-37).
7. Axmatova, M. (2023). Buxoro viloyatidagi diqqatga sazovor joylarga transport xizmatlari va harakatchanligi tahlili. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 37(37).
8. Axmatova, M. (2021). Turizmدا transport xizmatlarini optimallashtirish chora tadbirlari. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
9. Axmatova, M. (2021). Turizm va transport xizmatlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
10. Axmatova, M. (2023). Turistik transport xizmatlarini takomillashtirish strategiyasini aniqlash. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 36(36).
11. Axmatova, M. (2023). Анализ транспортных услуг и мобильности к достопримечательностям Бухарской области. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 37(37).
12. Axmatova, M. (2023). TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARGA INNOVATSION YECHIMLARI. *DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE*, 1(4), 58-65.
13. Axmatova, M. (2023). INTERNATIONAL CONNECTION OF TOURISM AND TRANSPORT SERVICES. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 37(37).
14. Rozikovich, H. H. (2021). The role of innovative technologies in improving the quality of transport services. *World Bulletin of Management and Law*, 3, 4-8.
15. Ruziyeva, M. (2023). OZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASIDA OLIV BORILAYOTGAN ISHLAR VA ULARNING ISTIQBOLLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 36(36).
16. Ruziyeva, M. (2023). MAMLAKATLARNING GASTRONOMIK HARITASINI YARATISH METODOLOGIYASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 35(35).



17. Tulkinovna, R. M., & Ramazon ogli, A. R. (2023). OZBEKISTONDA GASTRONOMIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI: BUXORO VILOYATI MISOLIDA. *Journal of new century innovations*, 31(1), 116-120.
18. Ruziyeva, M. (2023). O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA MICE TURIZMINING MINTAQAVIY RIVOJLANISHI VA TUTGAN ORNI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 36(36).
19. Ruziyeva, M. (2023). RESTORAN BIZNESI–KATTA SARMOYA MANBAYI, UNING INSON TURMUSH TARZIDA TUTGAN O'RNI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 37(37).
20. Oktyamovna, A. S. (2023). Prospects for the Development of New Types of Travel in Uzbekistan. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(2), 9-11.
21. Oktyamovna, S. A. (2023). Development of Animation Service in Tourism in the Example of Bukhara Region.
22. Khakimovna, N. F., & Oktyamovna, S. A. (2022). Sustainability Reporting Towards Common Standards. *European Journal of Innovation In Nonformal Education*, 2(4), 236-239.
23. Юлдашев, К. Ш., & Алимова, Ш. О. КОНСАЛТИНГ ХИЗМАТЛАРИ ЁРДАМИДА МЕҲМОНХОНА ФАОЛИЯТИНИ ЙЎЛГА ҚЎЙИШНИНГ АМАЛИЙ УСУЛЛАРИ.